



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 4/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 4/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбархон Муртазаева ЭЛЕМЕНТЫ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА: НОРМЫ, ИНСТИТУТЫ И ПРАКТИКИ.....	5
2. Боходир Эшов, Гайбулла Уралов ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ.....	14
3. Nilufar Djurayeva XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	21
4. Бекзод Пайзуллаев ОСНОВНЫЕ ТОРГОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ.....	44
5. Farhod Usmanov O‘ZBEKISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI.....	53
6. Baxtiyor Xudoyberdiyev MALLAXON DAVRIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	60
7. Azamat Abduraxmonov SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi yarmidan - hozirgi kungacha).....	65
8. Фаррух Акчаев ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ МАРОСИМЛАРДА АКС ЭТИШИ.....	72
9. Shuxrat Bozorov ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil).....	81
10. Татьяна Дорошенко ФОРМИРОВАНИЕ АРМИИ В.АНДЕРСА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	87
11. Наим Обломуратов СОҲИБҚИРОН МЕРОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР.....	96
12. Nargiza Choriyeva SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	104



Farhod Usmanov,
Toshkent 1-son akademik litseyi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

О'ЗБЕКISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI

For citation: Farhod Usmanov. THE ROLE OF CHILDREN'S HOMES IN ELIMINATING CHILD HOMELESSNESS IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846361>

ANNOTATSIYA

Maqolada sovet davri uchun murakkab vaiyat keltirib chiqargan bolalar qarovsizligi, O'zbekiston hududiga kirib kelishi, shahar mintaqalarida qarovsiz bolalarning soni oshib borishi bilan ularning qarovsizligini bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar va aynan bolalar uylarining bolalar qarovsizligini bartaraf etishdagi ahamiyati hamda mazkur davr bolalar uylaridagi mavjud muammo va kamchiliklar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: bolalar qarovsizligi, bolalar uyi, vasiylik, go'daklar uyi, patronat, qabul punktlari, kuzatuv-taqsimot punkti, kommuna, tungi boshpana, reformatorium.

Фарход Усманов,

Ташкентский академический лицей № 1,
Доктор философии (PhD) в области исторических наук

ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКИХ ДОМОВ В УСТРАНЕНИИ БЕСПРИЗОРНОСТИ ДЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье представлена подробная информация о детской беспризорности, создавшей сложную ситуацию в советский период, её проникновении на территорию Узбекистана, мерах, предпринятых по устранению беспризорности в связи с ростом числа беспризорных детей в городских регионах. Также освещается роль детских домов в решении данной проблемы, существующие недостатки и трудности в деятельности детских учреждений того периода.

Ключевые слова: детская беспризорность, детский дом, опека, дом малютки, патронат, приемные пункты, приемно-распределительный пункт, коммуна, ночлежка, реформаторий.

Farhod Usmanov,
Tashkent Academic Lyceum No. 1,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

THE ROLE OF CHILDREN'S HOMES IN ELIMINATING CHILD HOMELESSNESS IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article provides a comprehensive analysis of child homelessness, which emerged as a critical social challenge during the Soviet period. It examines the penetration of this phenomenon into the territory of Uzbekistan, the rapid increase in the number of homeless children in urban areas, and the systemic measures implemented to address this crisis. Furthermore, the study highlights the pivotal role of orphanages in mitigating child vagrancy while critically evaluating the systemic issues and deficiencies inherent in the childcare institutions of that era.

Index Terms: child homelessness, orphanage, guardianship, infant house, foster care (patronage), reception centers, observation and distribution center, commune, night shelter, reformatory.

Dolzarbliigi:

Jamiyat rivojlanib borishi bilan, uning kelajakda duch kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavflarni oldindan bilishi va uning tarixiy faktlarni o'rganish orqali xato hamda kamchiliklarni takrorlamaslik uchun zamin yaratishi doimo dolzarblik kasb etib kelgan. Shu jumladan, O'zbekiston tarixida qarovsiz va nazoratsiz bolalarni soni ortib ketishi bilan aholi o'rtasida turli darajada salbiy oqibatlarini keltirib chiqarganligi, bugungi kunda uning zamonaviy shakllarini yuzaga kelishi mumkinligidan kerakli xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Insoniyatning kelajak davomchisi bo'lgan bolalar masalasi doimo diqqat markazida bo'lib, ularning munosib turmush tarzi, farovon kelajagini ta'minlash uchun ko'plab islohot hamda chora-tadbirlar amalga oshirib kelingan. Ammo tarixda mavjud turli urush, tabiiy ofat yoki shunga o'xshash salbiy holatlarda nisbatan himoyasiz, o'z bo'lgan bolalar jabr ko'rishi va ularning himoyasiz, qarovsiz qolish holatlari insoniyatning ertangi kun farovonligiga to'siq bo'luvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan.

Rossiyaning turli yerlarida qarovsiz bolalar Birinchi jahon urushi, 1918-1920 yillar fuqarolik urushlari, 1921 yilgi Volgabo'yi qashshoqlik va ocharchiligi [6, - B. 5], turli muvaffaqiyatsiz islohotlar, Ikkinchi jahon urushi kabi sabablar ta'sirida shakllangan. Birgina, Birinchi jahon urushida Rossiya 2 milliondan ortiq fuqarolari halok bo'lib, 10 millionga yaqini yarador bo'lishi mamlakatda 2.5 million [1, - B. 84] qarovsiz bolalar shakllanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, mazkur bolalarning katta qismi o'z hayotini ko'chadan izlab, O'zbekiston hududiga qadar kirib kelishgan. Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistondagi bolalar o'rtasida mavjud bo'lgan qarovsizligi va nazoratsizligini bartaraf etishda turli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, shuningdek, bolalar uylarining mazkur masalaga qarshi kurashdagi ahamiyatiga oid tarixini obyektiv yoritishda xizmat qiluvchi nazariy-metodologik asoslarni tahlil qilish hamda uning shakllanish xususiyatlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani tayyorlashda umume'tirof etilgan ilmiy tamoyil va usullarga tayanildi. Xususan, tarixiylik tamoyili O'zbekiston tarixida sodir bo'lgan tarixiy voqea hodisalar fonida bolalar o'rtasida qarovsizlik va nazoratsizlikning shakllanib kelishini xronologik izchillikda o'rganish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil orqali rus bosqinlarigacha bo'lgan davrdagi va bosqindan keying davrdagi hayot turmushidagi o'zaro farqlarni anglash, bolalar qarovsizligi va nazoratsizligini bartaraf etishda amalga oshirilgan chora tadbir hamda vositalarning masalani yaxshilashdagi ahamiyatini bir biriga qiyoslab o'rganish imkonini berdi.

Induksiya va deduksiya orqali mavjud muammoning xususiy faktlarini jamlash va ulardan yagona umumiy xulosa shakllantirish imkonini berdi. Bu o'z navbatida masala yuzasidan xulosalar shakllanishida keng qamrovli asoslarni shakllantirdi.

O'zbekistonda mazkur masala bilan shug'ullangan bir qancha olimlar o'z navbatida rus tobe yerlari olimlari tadqiqotlari orqali tadqiq qilib kelishgan. Buning asosiy sababi masalaning tub mohiyati shundan boshlanib, natijasi o'laroq O'zbekiston hududiga keng yoyilgan. K.Fozilxodjaev, A.Almatinskaya, A.Avdeeva, A.Xalikov kabi ko'pgina olimlarning ilmiy asarlarida mazkur masala bo'yicha keng qamrovli tadqiqot natijalari keltirib o'tilgan.

Tadqiqot natijalari:

O‘z navbatida, bolalar qarovsizligining oldini olish va uni bartaraf etishda turli ko‘rinishdagi bolalar muassasalarining ahamiyati yuqori bo‘lib, O‘zbekistonda aynan bolalar muassasalarining tashkil etilishi bolalar qarovsizligi masalasini jiddiy bartaraf eta olgan. Sababi, O‘zbekistondagi bolalar qarovsizligining taxminan 70 – 80 %i chetdan kelgan bolalar hissasiga to‘g‘ri kelib, ularni bolalar muassasalariga qamrab olish eng muhim samarador choralardan bo‘lgan edi. Ammo, respublikadagi ahvol shusiz ham og‘ir bo‘lganligi sababli, bolalar muassasalarida mavjud imkoniyat va sharoitlar yomonligi bolalar qarovsizligining ko‘payishiga ham ta‘sir qilib, bolalarning ko‘chaga muassasadan qochib ketishi holatlari ham uchragan. Bu o‘z navbatida ko‘cha qarovsizligining oshib borishiga sabab bo‘lgan. Ko‘chadagi qarovsizlik o‘z navbatida huquqbuzarlikning shakllanishiga ham olib kelgan. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda bolalar muassasalari faoliyatining yaxshilanishiga doimiy harakatlar amalga oshirilib kelgan.

Qarovsiz bolalar soni oshib borishi bilan, ularni qamrab olish zarurati kuchayib borishi sabab, XX asrning 20-yillarida bolalar uylari tarmoqlari xususiyati bo‘yicha farqlanib, jismoniy va aqliy nuqsonli bolalar uylari, kuchsiz va kasal bolalar uylari, oddiy bolalar uylari tartibida shakllantirilgan [2, - B. 107]. 1920 yil boshida Rossiyada jami 1 000 dan ortiq bolalar uylari bo‘lib, ularda 75 mingdan ortiq bola mavjud edi [3, - B. 3]. Mazkur raqamlar bolalar qamrovini tashkil etishda juda past ko‘rsatkich bo‘lib, birgina Andijonda yevropalik va musulmonlarning 2 ta internatida 30 o‘ringa 100 bola joylashib, yotoqxona ovqatlanish, o‘ynash xonalari vazifasini bajarishi, musulmon internatida 4 yildan buyon savodsiz, tarbiyasiz, biror o‘zgarishsiz, kiyim-bosh yo‘qligidan Toshkent koloniyaga yuborilmagan jinoyatchi, alohida saqlanishi belgilangan bolalar borligi, Andijon uezdida 1 500 bolaga 15 ta internat [7, - B. 19] zarurati, holat achinarli darajada bo‘lganligidan dalolat beradi.

Toshkent keskin uy-joy inqiroziga uchragan bir vaqtda internatda ota-onasi bor, ishlashga qodir, yashash joyi mavjud bolalar borligi vaziyatni murakkablashtirgan. Maorif tashabbusi bilan komissiya tuzilib, internat, maktab-kommuna bolalari ijtimoiy maqomini belgilash, chin yetim, nogiron, yarim yetimlar qoldirilib, qolganlarini chiqarishni rejalashtirgan [8, - B. 2] va shu tariqa XX asrning 20-yillarida Turkistonda bolalar muassasalariga joylashtiriluvchi bolalarning sinfiy shakllari joriy qilingan. Bu o‘z navbatida boshpanaga muhtojlarni qamrab olish va imkoniyati mavjudlarni rad qilish orqali amalga oshirilgan.

Shuningdek, Turkiston Oziq-ovqat XKning 1921 yil 28 maydagi № 174-son Qaroriga ko‘ra, bolalar uylarida saqlanayotgan bolalarga ovqatlanish me‘yorlari belgilanib, bolalar ikki guruhga, 3-8 yoshlilar va 8-16 yoshlilarga ajratilgan. 3-8 yosh oralig‘idagi bolalarga kuniga 20 funt non, 2 funt yorma, 2 funt go‘sh, 2 funt yog‘, 4 funt kartoshka, 9 funt sabzavot va piyoz, 4 funt tuz, 1,84 funt shakar, 5 funt quruq meva, 0,2 funt choy, 2 idish sut, 0,4 funt sovun berish tartibi belgilangan bo‘lsa, 8-16 yoshlilarga 30 funt non, 2 funt yorma, 2 funt go‘sh, 3 funt yog‘, 4 funt kartoshka, 9,6 funt sabzavot va piyoz, 4 funt tuz, 0,2 funt choy, 5 funt quruq meva, 1,84 funt shakar, 1 idish sut, 4 funt sovun berilishi belgilangan [9, - B. 7].

Qarovsiz bolalar tarkibida go‘daklarning ham salmog‘i oshib borib, ular uchun alohida muassasalar tashkil etish zaruratga aylangan. “Go‘daklar uyi” va “Onalikni muhofaza qilish uyi” [5, - B. 3] ana shu maqsadda tuzilgan bo‘lib, bundan tashqari turli nuqsonli bolalar uchun ham alohida tartibda muassasalar tashkil etilgan. Ammo ulardagi sharoit nuqsonli bolalarni saqlash imkonini bermagan. Misol uchun, Toshkent shahri Pushkin ko‘chasidagi 3-sonli internat yonidagi 100 bolaga mo‘ljallangan nuqsonli bolalar kollektori 1921 yilda o‘rganilganda 9-17 yoshli 53 bola borligi aniqlanib, bino 4 ta xona 2 ta yotoqxona, oshxona, kanselyariyadan iboratligi, bu yerda kollektor rahbari, tarbiyachi, izvoshchi va begona shaxslar yashashi, 6 ta tarbiyachi-o‘qituvchi mashg‘ulot o‘tmay, xo‘jalik ishlari, pol yuvish, ovqat tayyorlash ishlariga jalb qilinganligi [10, - B. 160] aniqlangan.

Qabul punktlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi o‘z navbatida bolalarni tezda qabul qilish va taqsimlashda samarali bo‘lgan. Kuzatuv-taqsimot (kollektor)da bolalar psixologiyasi o‘rganilib, ular oddiy shakldagi bolalar muassasalari (internat) yoki tarbiyasi og‘ir bolalar muassasasi (maktab-kommuna, mehnat koloniyasi va shu kabilar)ga taqsimlagan. Kollektorlarda bolalar 2 haftadan 2

oygacha qolishi mumkin bo'lgan, tarbiya masalasiga oid spektakl va boshqalar tashkil qilinib, bolalar o'zlari rol o'ynashi [4, - B. 2] esa u yerga tushgan bolalarning nisbatan tarbiyaviy yaxshilanishiga xizmat qilgan. Voyaga yetmagan jinoyatchilar uchun Ichki ishlar XK nazoratidagi Reformatorium qattiq rejim vazifasini bajargan, u faqat Turkiston SSR da bo'lgan. 1922 yilda bolalar qarovsizligini bartaraf etish uchun muassasalar yetarli, degan yolg'on ma'lumotlar asosida kuzatuv-taqsimot punkt (kollektor)lari, muassasalarning qisqarishi va reevakuatsiya bolalarining bir qismi Turkistonga qayta kelishi, bolalar uylaridan qochishlar sonining ko'payishi kabi holatlar natijasida yirik shahar markazlari, bozor, ko'chalar qarovsiz bolalar bilan to'lgan [11, - B. 8].

Reformatorium tarbiyasi og'ir, jinoyatchi bolalarni saqlash, mehnatga o'rgatish, jamiyat va hayotda o'z o'rnini topishi uchun tasavvurini kengaytirishni ko'zlagan holda ozodlikni cheklovchi gimnastika, sport, gigiena bo'yicha doimiy mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan maskan bo'lib, 14-18 yoshli ikkala jins vakillari sud qarori, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya xulosasiga ko'ra yuborilgan, tergov ostidagi bolalar qabul qilingan. Okrug komissiyalari reformatoriumlariga voyaga yetmagan jinoyatchilar faqat Maorif XK Bosh ijtimoiy tarbiya komissiyasi xulosasiga ko'ra joylashtirilib, ularning shaxsiy xarakteristikasi ko'rsatilgan. Reformatorium butunlay izolyatsiya, kirish va chiqishda qattiq rejimli nazorat, bir tomonlama chiqish, asab tizimini yaxshilash uchun zarur vanna bo'lishi talablari bilan tashkil etilgan. O'rtacha 60 kishiga mo'ljallanib [12, - B. 9], pedagogik kengash ham faoliyat yuritgan [12, - B. 10]. Reformatoriumda 4 haftadan ko'p bo'lmagan muddatda tibbiy ko'rik tashkil etilishi majburiy bo'lgan [12, - B. 11]. Ammo bu kabi belgilangan me'yorlar to'liq bajarilmay qolgan. Bunga esa mavjud imkoniyatlar talabni qoplay olmasligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Bolalar muassasalari soni kamligiga qaramasdan, ular uchun ajratilgan bino va inshootlar yuqori turuvchi organlar tomonidan turli yo'llar bilan olib qo'yilishi oqibatida mavjud muassasalar yopilib, yangi rejalashtirilganlari ochilmay qolishi muammolarni yanada ko'paytirgan. 1920 yil Qo'qonda gimnaziya, Toshkentda Frunze, Chasovitina kabi dachalar, Qo'yliqdagi bo'shab qolgan monastir kabi binolarni sovet tashkilotlari, harbiy qismlar Maorif XKga xabar qilmasdan, diktatorlik yo'li bilan egallab olishi oqibatida jami 115 ta internat, maktab-kommunalar faoliyat yuritib [14, - B. 126], umuman o'z vazifasiga nomunosib yuqumli kasallik o'chog'iga aylanib qolgan.

1924 yilda Turkistonda qarovsiz bolalar ko'p hududlarda o'g'il, qizlarga alohida Bolalar tungi boshpanalari tashkil etilishi, issiq joy, elektr, issiq suv, kunlik qo'lga pul yoki boshpanada bolalarga arzon, go'daklarga tekin oshxona tuzish kabi moddiy yordam ko'rsatish [15, - B. 71], qarovsiz bolalar uylari, o'smirlarga koloniya tashkil etish [16, - B. 97], 1926 yil 1 apreldan 1926 yil 1 oktabrgacha Samarqandda mahalliy aholi vakillari uchun 50, mahalliy yahudiylar uchun 50, temir yo'llardagi bolalar uchun 25 o'rinli bolalar uylari [17, - B. 4], Toshkentda qabul taqsimot punkti (50), Qo'qonda bolalar sil sanatoriyasi (50), Buxoroda bolalar uyi (100), Termizda immigrantlar uchun 35 o'rinli ko'rinishda tashkil etish [17, - B. 5] kabi amaliy choralar o'z navbatida bolalar qarovsizligini bir muncha qisqartira olgan.

Toshkentning yangi shahar qismida 882, eski shahar qismida 250 jami 1 135 ko'cha qarovsizlari yig'ilib, 1 233 ko'cha qarovsiz bolalari mamlakat bo'ylab kezib yurishi [18, - B. 11] markaz tomonidan bolalar muassasalarini qisqartirish va uning o'rniga kerakli chora-tadbirlarni qo'llamasligi natijasi edi.

Qarovsiz bolalar sifatida bolalar muassasalariga qamrab olingan bolalar tarkibi, arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1928-1929 yil 6 500 tarbiyalanuvchidan 39%i chin yetim, 20%i faqat qarindoshlari bor, 34 % i otasi yoki onasi bor, 7 % i ota-onasi bor bolalarni tashkil etgan bo'lib, 68 % o'g'il, 32 % qiz bolalarni, 34 % o'zbek, 44 % rus, 8 % tojik, 4 % yevrey, 5 % qirg'iz, 6 % tatar, 4 % qolgan millat bolalarini tashkil etgan [19, - B. 43]. Otasi yoki onasi bor bolalar va ota-onasi bor bolalar 40 % dan ortiq bo'lib, bu mazkur bolalarni muassasalardan chiqarish imkoni bo'la turib, u yerdan mustaqil hayotga chiqarilmaganligini anglatadi. Yillar ketma-ketligida ko'radigan bo'lsak, 1928-1929 yil 81 muassasada 7 500, 1929-1930 yil 78 muassasada 7 800, 1930-1931 yil 86 muassasada 8 630 bolalar bo'lib, qamrovni yanada oshirish maqsadida 1931 yil 5 ta bolalar qabulxonasi ochilgan [20, - B. 53] va bolalarni tizimli tarzda yig'ish, taqsimlashga ko'maklashgan.

Bolalar muassasalari faoliyati samaradorligi o'z navbatida moddiy asosga bog'liq bo'lib, ularga ta'minot turli yilda turli shaklda taqdim etilgan. 1925-1926 yil 1 022 000 so'm, 1926-1927 yil 2 112 470 so'm, 1927-1928 yil 2 170 984 so'm smeta belgilangan bo'lsa-da, ular amalda to'liq berilmay, ko'chada 3 500 qarovsizlar shakllanishiga sabab bo'lgan. Ularni qamrab olishda bolalar uylaridan tashqari 1927 yil Toshkentda 200 kishilik mahalliy 3-Internatsional, Toshkentda 60 kishilik mahalliy pioner kommuna, Toshkentda 150 kishilik Dzerjinskiy nomli bolalar uyi, Toshkentda 150 kishilik Krupskiy nomli bolalar uyi, Buxoroda 100 kishilik qishloq xo'jalik kommunasi va milliy tarkib asosida Samarqandda 60 kishilik yahudiy bolalar uyi ham faoliyat yuritgan [13, - B. 9].

Qarovsiz bolalar 1933 yilda ko'p sonli bo'lib, 187 ta bolalar uyi va qabulxonalaridan 102 ta maktab yoshidagi bolalar uyida 10 930, 5 ta o'smir bolalar qabulxonasida 320, 43 ta maktabgacha yoshdagi bolalar uyida 270, 4 ta kasal bolalar uyida 273, 23 ta bolalar qabulxonalarida 2 300, jami 16 546 bola qarovsiz edi [21, - B. 492]. Ularning ta'minoti bo'yicha ham muammolar mavjud bo'lib, 1934 yilning 4-22 mart kunlari Toshkentdagi bolalar uylarini Moliya XK o'rganganida har bir bolaga kunlik ajratilgan ta'minot 1 so'm 75 tiyin bo'lsa-da, buning o'rniga 60 tiyindan sarflanishi sababli [22, - B. 10] 3 % bola kasalmand bo'lgan, 7 % bola ko'chaga qochgan, 800 ta o'rin bo'sh qolgan [23, - B. 16 B].

Qiziq jihati shundaki, mazkur davr bolalar uylari ota-onasi bor oila farzandlari tarbiyalanuvchi joyga aylanib qolganligini ham uchratishimiz mumkin. 1935 yil holatiga ko'ra, Toshkentda bolalar muassasalaridagi 5 035 boladan 147 tasi ota-onasi borlar, 1 891 nafari otasi yoki onasi borlardan iborat edi [24, - B. 9]. Bu esa 1936 yil 1 yanvardan Toshkentda 200 bolaga pullik bolalar uyini ochish [25, - B. 70] taklifi berilishiga sabab bo'lgan.

XX asrning 30 yillari ikkinchi yarmida ham bolalar uylari faoliyati bo'yicha ko'plab salbiy holatlar mavjud bo'lib, bu o'z navbatida bolalar qarovsizligining oshishiga xizmat qilgan. 1935 yilda Namangandagi 1-bolalar uyining 6 ta xonasi va Andijondagi 3-bolalar uyi 3 ta xonasini ishchi xodimlar xonadonga aylantirib olganligi [26, - B. 37], Toshkentdagi 6-bolalar uyi bolalari kechasi qabristonga olib borilib, quloqsizligi uchun qabrga tushirilib qo'rqitilgani [27, - B. 3], Bekobodagi 1-sonli Ikromov nomli bolalar uyi tarbiyachisi Pestov tarbiyalanuvchi Belorusovni oshxonaga tartibsiz kirgani uchun, Dushkin, Ispatirovlarni jinoyatchi sifatida 5 sutka qamab, yegulik bermay, kimdir yoqmay qolsa safdan chiqarib, galstugini yechgan holda hamma uning yuziga tufflashini buyurishi, Axtamov ismli 11 yoshli bola arz qilganda Pestov oynalarni sindirib uning bo'yniga qo'yib, karsetga jo'natgani, undan chiqqanda och, kasal holiga Axmatov 5 kilometr uzoq cho'lga tashlab kelingani [28, - B. 3] kabi holatlar ko'payib borishi natijasida 1936 yilda 30 ta bolalar uyi turli sabablar bilan yopilgan [29, - B. 189].

Bolalar muassasalarida moddiy-texnik bazaning yomonlashib borishi sababli, 10-20 bolaga 1 krujka, 2-3 bolaga 1 ta kravot to'g'ri kelib, 100-200 bolali qabulxonalarda bolalar palasda yotish [24, - B. 21] holatlari uchragan. Buning ustiga 1939 yil 1 yanvardan Toshkentdagi 45 ta bolalar uyi 5 725 bolalari bilan, Samarqanddagi 17 ta bolalar uyi 1 875 bolalari bilan, Farg'onadagi 28 ta bolalar bog'chasi 2 945 bolalari bilan, Buxorodagi 12 ta bolalar uyi 1 525 bolalari bilan, Xorazmdagi 5 ta bolalar bog'chasi 810 bolalari bilan davlat budjetidan mahalliy budjetga o'tkazilishi [30, - B. 12] vaziyatni yanada murakkablashtirgan, xolos. Mahalliy budjet zimmasiga butun boshli muammolar yuklanib, markaz tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'ri tashkil etilmasligi ba'zi hududlarda bolalarning nochor hayot kechirishiga sabab bo'lgan.

Urush harakatlarining boshlanishi O'zbekistonda bolalar qarovsizligi sonini keskin oshirdi, chunki evakuatsiyalar orqali ularning ko'lami oshib bordi. Ammo shunday bo'lsa-da, o'zbekistonliklar keltirilayotgan bolalarni mehribonlik bilan va namunali tarzda qabul qilib olganlar. 1941 yil dekabrda kechki soat 3da Aris bekatiga 2 500 bola bilan eshelon kelib, yarmi O'zbekiston, qolgani Qirg'izistonga joylashtirilish taqsimoti ma'lum qilingan. Ular Andijon va Namangandagi bolalar uylariga zudlik bilan joylashtirilib, yarmi O'sh, Jalolobodga ketgan. Bolalarni Qirg'iziston qabul qilmay, O'zbekistondan qaytib o'tishda ular Andijon, Namangan bolalar uylariga joylashtirilgan. Moskvadagi ispan yoshlari uyi Barnaulga evakuatsiya qilinganda bolalar ishga yuborilishi ma'lum qilingan. Direktor norozi bo'lib, Olmaotaga kelsa, u yerda ham

qabul qilinmagan. Bu bolalar O‘zbekistonga keltirilib, Samarqanddagi 29-maktab binosiga joylashtirilgan. 1942 yil sentabr-oktabr oylarida Toshkentga 3 eshelonda 3 500 bola kelib joylashgan bo‘lsa, ulardan ko‘pchiligining ikkinchi yoki uchinchi manzili O‘zbekiston bo‘lgan. Toshkentdagi 7-bolalar uyi Simferopol, Krasnodardagi Leuskiy stansiyasida joy topa olmay, Toshkentning Stalin tumanidagi 83-maktabga joylashtirilgan. Leningradning partizan bolalari (95 ta) Krasnodarda joylasha olmay, Toshkentga olib kelingan va Kalinin tumaniga joylashtirilgan. Yo‘ldagi muammo va tushunmovchilikdan bolalar abgor holda kelib, zudlik bilan kasalxonaga joylashtirilib, choralar ko‘rilsa-da 27 bola vafot etgan. 1943 yilning birinchi yarmi davomida turli kasallik oqibatida 13 bola vafot etgan [31, - B. 5].

Urush davrida bolalar muassasalarida shart-sharoit yanada murakkablashib ketishi bolalarning qochish holatlarini ko‘paytirgan. 1942 yil 2-choragida bolalar uylaridagi yomon ahvol sababli 2 809 bola bolalar uyidan qochib ketgan [32, - B. 46]. Marg‘ilondagi 1-bolalar uyida 150 bola bo‘lib, 1943 yilda 45 nafar, 1944 yil 3 oyida 15 bola qochib ketgan. Bolalar uyida 3 bolaning vafot etishi, 27 ta bolaning kasallanganiga smetadagi oziq-ovqatning yarmi ham berilmagani sabab bo‘lganligi manbada qayd etilgan [33, - B. 1]. Urush yillari 75 ta yirik maktab, pionerlar saroyi, bolalar texnik stansiyasi, kutubxona va boshqa bolalar birlashmalari yopiq yoki boshqa maqsadda faoliyat yuritgan [32, - B. 48]. Bu bolalar tarbiyasiga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazishi tabiiy edi.

Xulosa:

1917-1941 yillarda respublikada ko‘plab bolalar uylari faoliyat yuritgan. Mazkur muassasalar qarovsiz bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, chetdan kirib kelgan bolalarning juda ko‘pligi sababli bolalar uylarining soni qarovsiz bolalar miqdoriga nisbatan ancha kam bo‘lgan. Shu sababli, qarovsiz bolalarning barchasini bolalar uylariga jalb qilish imkoni mavjud bo‘lmagan. Bundan tashqari, bolalar uylarining binolari turli tashkilotlar tomonidan olib qo‘yilishi natijasida yildan-yilga mazkur muassasalarning soni kamayib borgan. Shuningdek, sovet hukumati bolalar uylarini moddiy jihatdan to‘liq ta‘minlamagan.

Bolalar qarovsizligini bartaraf etishda mazkur davr O‘zbekistonda amalga oshirilgan chora-tadbirlar ko‘lami keng bo‘lsa-da, amalda o‘zini to‘liq namoyon eta olmagan. Bunga sabab sovet hokimiyati tomonidan e‘tiborning sust ekanligi, chetdan kelgan bolalar sonini kamaytirish maqsadida butun Ittifoq bo‘ylab talab qilingan chora-tadbirlarning amalda ishlamasligi va oqibatda ularning jamoa yoki yakka ko‘rinishda kunlik kelishi bartaraf etilmay, ko‘cha qarovsizlari soni doimiy o‘sib borgan.

Mazkur davrda o‘zbek oilalari tomonidan patronatga bola qabul qilish dastlab yaxshi shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik sustlashib qolgan. Bunga sabab bolalar tarkibi, ularning ijtimoiy ahvoli hamda ruhiyati bilan bog‘liq omillari o‘rganilmasdan oilalarga topshirilishi, ozroq birga hayot kechirgandan so‘ng turli ko‘rinishdagi muammolar sababli oilani tark etib, bolalarning qayta qarovsizga aylanishi ko‘paygan. Bunda oilaviy muhitga moslasha olmaslik, bolalarning turli mehnat yumushlariga umuman layoqatsiz munosabatda bo‘lishi va hokazo sabablar birlamchi bo‘lib, bu masalalar chuqur o‘rganilib, hal etilmagan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Шахова Ye.C. Становление и развитие государственной политики в области борьбы с безнадзорностью в 1917-1941 гг. (на материалах Курского края). Дисс. кан. истор. наук. – Курск, 2008.
2. Валеева Р.А., Ильдарханова Ф.А., Искандрова Р.Р. Ресоциализация беспризорных детей: муниципальный уровень. – Казань: Отчетсов, 2011.
3. Известия. 10 ноябрь, 1920 г.
4. Известия. 03 декабрь, 1921 г
5. Известия. 20 февраль, 1921 г.
6. ЎзМА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 531-иш.
7. ЎзМА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 494-иш.
8. ЎзМА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 453-иш.

9. Тошкент вилоят давлат архиви, 530-фонд, 1-рўйхат, 1193-иш.
10. ЎзМА, Р.25-фонд, 1-рўйхат, 682-иш.
11. ЎзМА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 1781-иш.
12. ЎзМА, Р.86-фонд, 5-рўйхат, 223-иш.
13. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 5129-иш.
14. ЎзМА, Р.25-фонд, 1-рўйхат, 360-иш
15. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 158-иш
16. ЎзМА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 150-иш
17. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 4381-иш
18. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 3604-иш
19. ЎзМА, Р.837-фонд, 6-рўйхат, 6-иш
20. ЎзМА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 6699-иш
21. ЎзМА, Р.86-фонд, 10-рўйхат, 160-иш
22. ЎзМА, Р.837-фонд, 12-рўйхат, 676-иш
23. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 1416-иш
24. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 1721-иш
25. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 2096-иш
26. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 1713-иш
27. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 2111-иш
28. Комсомол Узбекистана. 06 апрель, 1937 г.
29. ЎзМА, Р.86-фонд, 10-рўйхат, 1345-иш
30. ЎзМА, Р.837-фонд, 32-рўйхат, 1859-иш
31. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 4416-иш
32. ЎзМА, Р.837-фонд, 32-рўйхат, 3691- иш
33. ЎзМА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 4609- иш.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000